



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



No5(5)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 90 sahifa,  
22-may, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijranovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Wookyuu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

**Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor**

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

Matematika fanini o'qitishda kommunikativ va ijtimoiy-psixologik yondashuvlar .....	10
<i>Esonturdiyev Mamatqobil Nurmamatovich</i>	
Geografik axborot tizimlari (GAT) texnologiyalari asosida bo'lajak geografiya o'qituvchilarining innovatsion kompetentligini rivojlantirish metodikasi .....	13
<i>Bahromova Muhayyo Imomqul qizi</i>	
Geografiya ta'limida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning nazariy-metodik asoslari .....	18
<i>Tuyg'unov Murodjon Salimqul o'g'li</i>	
Biologiyani o'qitishda belgili-ramziy ko'rgazmalilik vositalaridan foydalanishning o'quvchilarning tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishdagi roli .....	22
<i>Azimov I. T., Daminova F. A.</i>	
PISA 2025 doirasida raqamli ta'lim kompetensiyalarini baholashning innovatsion mexanizmlari .....	25
<i>Doniyorov Muxiddin Normamatovich, Ishanov Almat Adilxanovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tabiiy savodxonligini oshirishda zamonaviy pedagogik vositalarni qo'llash .....	28
<i>Abdunazarov Bobir Normurodovich</i>	
Raqamli ta'lim resurslari asosida kredit-modul tizimida talabalarning o'quv faoliyatini takomillashtirish .....	32
<i>Jumayeva Ra'no To'ychi qizi</i>	
Oila va maktab integratsiyasining shaxs kamolotiga ta'siri .....	36
<i>Rasulova Dildora Shuhratovna, Raxmatova Zulxumor Alimovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda kreativ kompetensiyani shakllantirishning zamonaviy pedagogik mexanizmlari va uning ijtimoiy ahamiyati .....	40
<i>Sultanova Sahobar Ravshanbekovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik tarbiyani shakllantirishda tabiiy fanning o'rni .....	43
<i>G'afforova Zarnigor Abdumo'min qizi</i>	
Umumiy o'rta ta'limda o'qituvchi va ota-onalar ijtimoiy hamkorligini rivojlantirish .....	47
<i>Xalikova Zaxro Mirshadmanovna, Xolbo'tayev Muzaffar Odilovich, Bozorova Xadicha Javlon qizi</i>	
Nutqida kechikish kuzatiladigan bolalarda nutqni qo'l va barmoq motorikasini rivojlantiruvchi o'yinlar orqali shakllantirish .....	51
<i>Ne'matova Hilola Ikrom qizi, Ahmadova Fotima Adizovna</i>	
Taym menejment asosida bo'lajak o'qituvchilarda liderlik fazilatlarini rivojlantirish .....	55
<i>Soliyeva Ruxsora Sharobiddin qizi</i>	
Sun'iy intellekt va NLP texnologiyalari asosida elektron ta'lim muhitida talabalarning mustaqil ta'lim kompetensiyalarini rivojlantirish .....	58
<i>Otakishiyeva Gulshano Abdulaziz qizi</i>	
Pedagogik kvalimetriya asosida bo'lajak o'qituvchilarning diagnostik madaniyatini shakllantirishning nazariy asoslari .....	61
<i>G'aniyeva Muattarxon Nodirbek qizi</i>	
Образовательные технологии с учётом восприятия цвета: психологические и методические аспекты .....	64
<i>Имамова Хурият Эргаш кизи</i>	
Yosh erkin kurashchilarda chidamlilikni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish .....	69
<i>Ergashov Qaxramonjon Asqarovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mantiqiy masalalar yechishga o'rgatish usullari .....	76
<i>G'iyosova Dilovar Orif qizi</i>	
Haykaltaroshlik fanining metodik qo'llanilishi .....	80
<i>Qodirov Bobirjon Botirjonovich</i>	
Ijtimoiy xavf ostidagi bolalarni qo'llab-quvvatlashning jahon tajribasi va psixologik-pedagogik asoslari .....	85
<i>Manzura Qosmuratova</i>	



# UMUMIY O'RTA TA'LIMDA O'QITUVCHI VA OTA-ONALAR IJTIMOIY HAMKORLIGINI RIVOJLANTIRISH

Xalikova Zaxro Mirshadmanovna

Xalqaro Nordik universiteti Pedagogika kafedrasida katta o'qituvchisi

Xolbo'tayev Muzaffar Odilovich

"TIQXMMI" MTU assistenti

ORCID: 0009-0005-9011-0565

Bozorova Xadicha Javlon qizi

Xalqaro Nordik universiteti magistranti

ORCID: 0009-0001-1028-8808

**Annotatsiya:** Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'qituvchi va ota-onalar o'rtasidagi ijtimoiy hamkorlikning ahamiyati, uni rivojlantirish yo'llari hamda ta'lim-tarbiya samaradorligiga ta'siri ilmiy jihatdan yoritilgan. Tadqiqot jarayonida adabiyotlarni tahlil qilish, suhbat hamda qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Ota-onalar va o'qituvchilar o'rtasidagi samarali ijtimoiy hamkorlik o'quvchilarda bilim olishga bo'lgan qiziqishni oshiradi, ularning ijtimoiy faolligi hamda axloqiy tarbiyasini kuchaytiradi. Shuningdek, ota-onalarning pedagogik bilimlarini yuksaltirish va zamonaviy kommunikatsiya vositalaridan samarali foydalanish ta'lim jarayonining natijadorligini oshirishga xizmat qilishi ta'kidlangan.

**Kalit so'zlar:** umumiy o'rta ta'lim, o'qituvchi, ota-ona, ijtimoiy hamkorlik, ta'lim samaradorligi, tarbiya, pedagogik madaniyat, maktab-oila-jamiyat, kommunikatsiya texnologiyalari, suhbat metodi, qiyosiy tahlil metodi.

**Abstract:** The significance of social cooperation between teachers and parents in general secondary education institutions, ways of its development, and its impact on the effectiveness of educational processes are scientifically highlighted. The study employed methods such as literature analysis, interviews, and comparative analysis. Effective social cooperation between teachers and parents increases students' interest in learning, enhances their social activity, and strengthens their moral development. In addition, improving parents' pedagogical awareness and effectively using modern communication technologies are emphasized as important factors in increasing the effectiveness of the educational process.

**Key words:** general secondary education, teacher, parent, social cooperation, educational effectiveness, upbringing, pedagogical culture, school-family-society, communication technologies, interview method, comparative analysis method.

**Аннотация:** Раскрыты значение социального сотрудничества между учителями и родителями в учреждениях общего среднего образования, пути его развития, а также влияние на эффективность образовательного и воспитательного процессов. В ходе исследования использовались методы анализа научной литературы, беседы и сравнительного анализа. Эффективное социальное взаимодействие между родителями и учителями способствует повышению интереса учащихся к обучению, усилению их социальной активности и нравственного воспитания. Также подчеркивается, что повышение педагогической грамотности родителей и эффективное использование современных средств коммуникации способствуют повышению результативности образовательного процесса.

**Ключевые слова:** общее среднее образование, учитель, родители, социальное сотрудничество, эффективность образования, воспитание, педагогическая культура, школа-семья-общество, коммуникационные технологии, метод беседы, метод сравнительного анализа.

## KIRISH

Umumiy o'rta ta'lim tizimida ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirishda o'qituvchi va ota-onalar o'rtasidagi ijtimoiy hamkorlik alohida o'rin egallaydi. Bugungi globallashuv davrida bolalar tarbiyasida nafaqat maktab, balki oila va jamiyatning ijtimoiy hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu subyektlar o'rtasidagi mustahkam aloqa o'quvchilarning intellektual, ma'naviy va axloqiy rivojlanishida hal qiluvchi omil hisoblanadi. Chunki "zamonaviy jamiyatning globallashuv sharoitida o'quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishi, muloqotchanlik, interfaollik va kooperativ ko'nikmalarini kuchaytirish ehtiyoji ortib bormoqda" [9].

Boshlang'ich ta'lim davri har bir bolaning rivojlanishidagi eng muhim poydevor bosqichi hisoblanadi. "Pedagogik hamkorlik orqali o'quvchilarda ijtimoiy intellekt, empatik munosabatlar va jamoada ishlash ko'nikmalari rivojlanishi isbotlangan" [8]. Shuning uchun ham "oila va ta'lim muassasalarida oilaviy hayotga tayyorlash jarayonini yo'lga qo'yish" [3], o'qituvchi va ota-onalar o'rtasidagi ijtimoiy hamkorlik o'quvchining nafaqat bilim

olishi, balki komil shaxs sifatida shakllanishiga ham xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasining "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi Qonunining 7-moddasida pedagoglar zimmasiga "voyaga yetmagan ta'lim oluvchilarning ota-onasi yoki boshqa qonuniy vakillari bilan hamkorlikda ta'lim-tarbiya ishlarini olib borish" <sup>[1]</sup> majburiyatining yuklatilishi bejiz emas. Mazkur qonuniy talab asosida Chilonzor tumanidagi 178-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabida o'tkazilgan malakaviy pedagogik amaliyot davomida o'qituvchi va ota-onalar ijtimoiy hamkorligini rivojlantirish bo'yicha amaliy ishlar olib borildi.

Pedagogik tajriba-sinov ishlariga 2026-yilning yanvar–mart oylari davomida maktabning 7-"A" va 7-"B" sinflari ota-onalari jalb etildi. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'qituvchi va ota-onalar ijtimoiy hamkorligining mohiyati, uning muhim tamoyillari hamda amaliyotda qo'llash mumkin bo'lgan samarali tavsiyalar tahlil qilinadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ta'lim tizimida o'qituvchi va ota-onalar o'rtasidagi ijtimoiy hamkorlikning nazariy asoslari xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan.

J. Epstein tomonidan ishlab chiqilgan "maktab–oila–jamiyat" modeli ta'lim jarayonida barcha subyektlarning o'zaro integratsiyasini samarali tashkil etishning muhim mexanizmi sifatida e'tirof etiladi. Tadqiqotchining fikricha, ota-onalarning ta'lim jarayonidagi faol ishtiroki o'quvchilarning akademik natijalari va ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi <sup>[2]</sup>.

J. Dewey esa ta'lim jarayonining maktab bilan chegaralanib qolmasligi, balki oilaviy va ijtimoiy muhit bilan uzviy bog'langan holda tashkil etilishi zarurligini ta'kidlaydi <sup>[4]</sup>.

Ijtimoiy hamkorlikning pedagogik-psixologik jihatlari L.S. Vygotskiy tadqiqotlarida ham yoritilgan. Olim bolaning intellektual rivojlanishi ijtimoiy muhit va muloqot jarayoni bilan bevosita bog'liqligini asoslab bergan. Uning ijtimoiy rivojlanish nazariyasiga ko'ra, o'quvchilarning bilimlarni samarali egallashi kattalar bilan hamkorlikdagi faoliyat orqali yuzaga keladi <sup>[6]</sup>.

Shuningdek, M. Raxmonqulova maktab va oila hamkorligini tashkil etishning nazariy va amaliy jihatlari yoritib, ota-onalarning ta'lim jarayonidagi faolligi o'quvchilarning ijtimoiylashuvi va ma'naviy shakllanishida muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi <sup>[5]</sup>.

Mahalliy tadqiqotlarda ta'limdagi ijtimoiy hamkorlik masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

J. Yuldashev ijtimoiy hamkorlik mexanizmlarini ta'lim samaradorligini oshiruvchi omil sifatida baholab, pedagogik jarayonda subyektlar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi <sup>[7]</sup>.

N.X. Voxidova va Z.M. Xalikova boshlang'ich sinf o'quvchilarida tolerantlikni shakllantirishda oila va maktabning o'zaro hamkorligi muhim omil ekanligini qayd etganlar <sup>[8]</sup>.

Shuningdek, F. Islomova va F. Fayozova oilaviy qadriyatlar va tarbiyaviy an'analar yoshlarning mustaqil hayotga tayyorlanishida muhim pedagogik vosita bo'lib xizmat qilishini asoslab berganlar <sup>[3]</sup>.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda o'qituvchi va ota-onalar o'rtasidagi ijtimoiy hamkorlikni rivojlantirish mexanizmlari kompleks yondashuv asosida o'rganildi. Tadqiqot jarayonida nazariy va amaliy metodlar uyg'unligidan foydalanildi. Dastlab, mavzuga oid pedagogik, psixologik va ijtimoiy adabiyotlar tahlil qilinib, mavjud ilmiy yondashuvlar tizimlashtirildi hamda muammoning nazariy-metodologik asoslari aniqlashtirildi. Shu bilan birga, sohadagi ilg'or milliy va xorijiy tajribalar qiyosiy-tahliliy metodlar yordamida o'rganilib, umumlashtirildi.

Tadqiqotning empirik bosqichida kuzatish, suhbat va so'rovnomalar metodlari yordamida o'qituvchilar, ota-onalar hamda o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik darajasi, tizimli muammolar va ehtiyojlar aniqlandi. Hamkorlik mexanizmlarini amaliyotga joriy etish maqsadida interaktiv uchrashuvlar, seminar-treninglar hamda "Hamkorlik kuni" kabi amaliy tadbirlar tashkil etilib, ularning samaradorligi tajriba-sinov ishlari doirasida tekshirildi. Shuningdek, muloqot tizimini modernizatsiya qilish maqsadida raqamli kommunikatsiya vositalari (onlayn platformalar va messenjerlar) imkoniyatlaridan foydalanildi hamda hamkorlik jarayonining zamonaviy axborot shakllari eksperimentdan o'tkazildi.

Tadqiqot davomida to'plangan empirik ma'lumotlar tahliliy-statistik metodlar yordamida matematik qayta ishlanib, yakuniy natijalar umumlashtirildi. Pedagogik monitoring va baholash jarayonida o'quvchilarning bilim, ko'nikma hamda ijtimoiy kompetensiyalaridagi o'zgarishlar, shuningdek, ota-onalarning ta'lim jarayonidagi faollik dinamikasi uzluksiz tahlil qilib borildi. Eksperiment yakunida olingan ko'rsatkichlar asosida o'qituvchi va ota-onalar ijtimoiy hamkorligini rivojlantirishga qaratilgan metodik tavsiyalar ishlab chiqildi hamda taklif etilayotgan mexanizmning amaliy samaradorligi ilmiy jihatdan asoslandi.


Mazkur ilmiy maqolani tayyorlash va tadqiqotni tizimli amalga oshirishda quyidagi metodlar majmuasidan kompleks ravishda foydalanildi:

**1. Nazariy-metodologik metodlar:** muammoning ilmiy asoslarini belgilash hamda xalqaro andozalarni o'rganish maqsadida ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish va qiyosiy-tahliliy metodlar qo'llanildi.



2. **Empirik va eksperimental metodlar:** maktab hayotidagi real holatni o'rganish va amaliy muloqot tizimini sinash uchun kuzatish, suhbat, so'rovnoma, test hamda bevosita tajriba-sinov (eksperiment) metodlaridan foydalanildi.
3. **Analitik va nazorat metodlari:** olingan natijalarning ishonchliligini ta'minlash hamda jarayon o'zgarishlarini kuzatib borish maqsadida tahliliy-statistik hamda monitoring va baholash metodlari tatbiq etildi.  
Mazkur o'zaro uzviy bog'liq metodlar majmuasi tadqiqot obyekti hisoblangan o'qituvchi va ota-onalar ijtimoiy hamkorligini rivojlantirish jarayonini har tomonlama, xolis va ilmiy asosda o'rganish imkonini berdi.

## TAHLIL VA NATIJALAR



1-rasm: Tajriba guruhida o'qituvchi va ota-onalar ijtimoiy hamkorligi ko'rsatkichlarining tajriba oldi va tajribadan keyingi dinamikasi

Tadqiqot natijalari empirik ma'lumotlar hamda grafik (diagramma) tahlili asosida atroflicha yoritildi. Olingan ko'rsatkichlar o'qituvchi va ota-onalar o'rtasidagi tizimli muloqot o'quvchilarning nafaqat akademik o'zlashtirish darajasiga, balki ularning shaxsiy rivojlanish sotsiodinamikasiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi. Chunoschi, ota-onalar bilan integratsiyalashgan holda faoliyat yurituvchi pedagoglar sinflarida o'quvchilarning intizomi, darsga bo'lgan motivatsiyasi va sifat ko'rsatkichlari sezilarli darajada yuqori ekanligi aniqlandi. Bunday muhitda ta'lim oluvchilar o'z majburiyatlariga mas'uliyat bilan yondashib, o'quv jarayonida yuqori faollik namoyon etadilar. Raqamli kommunikatsiya vositalaridan foydalanish hamkorlik samaradorligini oshiruvchi determinativ omil sifatida namoyon bo'ldi. Xususan, Telegram platformasi, elektron kundalik tizimi (Kundalik.com) va onlayn videokonferensiyalar orqali doimiy axborot almashinuvining yo'lga qo'yilishi ota-onalarning maktab hayotidagi inklyuziv ishtirokini kuchaytirdi. Bu esa, o'z navbatida, o'quvchilarni oilaviy va pedagogik nazorat ostida qo'llab-quvvatlash imkonini berdi.

Shu bilan birga, ota-onalarning maktab tomonidan tashkil etiladigan ijtimoiy-madaniy tadbirlardagi bevosita ishtiroki o'quvchilarda jamoaviy ishlash (kooperativ) ko'nikmalari va ijtimoiy faollikni shakllantirishini ko'rsatdi. Biroq empirik tahlil jarayonida hamkorlikni cheklovchi ayrim muammolar ham destruktiv omil sifatida aniqlandi. Jumladan, ayrim ota-onalarning maktab bilan aloqasining passivligi hamda ularda pedagogik-psixologik savodxonlik darajasining yetishmasligi ijtimoiy hamkorlik mexanizmlari samaradorligini pasaytirmoqda. Bunday destruktiv holatlar o'quvchilarning ijtimoiy adaptatsiyasiga va intellektual o'sishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Olingan natijalar o'qituvchi va ota-onalar o'rtasidagi tizimli, uzluksiz va zamonaviy vositalarga asoslangan hamkorlikni yo'lga qo'yish ta'lim sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etishini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalari asosida olib borilgan ilmiy muhokamalar o'qituvchi va ota-onalar ijtimoiy hamkorligining tizimli, uzluksiz hamda maqsadli tashkil etilishi ta'lim jarayoni sifatini determinatsiyalovchi asosiy omil ekanligini ko'rsatdi. Mazkur integratsiyalashgan yondashuv o'quvchilarning akademik o'zlashtirish ko'rsatkichlarini oshirish bilan bir qatorda, ularning sotsiomadaniy rivojlanishini ham yuqori bosqichga ko'taradi.

Mazkur jarayonning muvaffaqiyati bevosita ota-onalarning pedagogik-psixologik savodxonligini oshirish bilan bog'liq. Maqsadli seminar-treninglar, mahorat darslari va interaktiv targ'ibot tadbirlari ota-onalarga zamonaviy ta'lim paradigmasining mazmun-mohiyatini chuqurroq anglash imkonini beradi. Natijada oilada farzand tarbiyasiga ongli yondashuv shakllanadi va pedagogik faoliyatni qo'llab-quvvatlash tendensiyasi kucha-

yadi. Shu jihatdan O'zbekiston Respublikasining "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi Qonunining 7-moddasida pedagoglarning ota-onalar yoki qonuniy vakillar bilan hamkorlikda ishlash majburiyatining huquqiy jihatdan mustahkamlanishi strategik ahamiyatga ega hisoblanadi. Zero, samarali hamkorlik muhiti o'quvchining kognitiv faolligini, intizomini va axloqiy qiyofasini izchil rivojlantirish uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, ijtimoiy hamkorlik arxitektonikasida "maktab-oila-mahalla" klasterining yagona tizim sifatida faoliyat yuritishi alohida sotsial ahamiyat kasb etadi. Ushbu uchlikning o'zaro uzviy integratsiyasi o'quvchining muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvini va sog'lom mikroiklimda voyaga yetishini kafolatlaydi.

Biz tomonimizdan olingan empirik xulosalar xorijiy olimlarning fundamental ilmiy qarashlari va konseptual modellari bilan to'liq uyg'unlik kasb etadi. Jumladan, L. Vygotskiyning ijtimoiy rivojlanish nazariyasiga (Social Development Theory) ko'ra, bolaning kognitiv taraqqiyoti bevosita u yashayotgan sotsial muhit interpretatsiyasiga bog'liq bo'lib, interfaol bilimlarni kattalar bilan tizimli muloqot jarayonida samarali o'zlashtiradi. Bu esa maktab va oila o'rtasidagi pedagogik hamkorlikning sotsial-psixologik zarurligini determinatsiyalaydi. Shuningdek, pragmatik pedagogika asoschisi J. Dewey ta'kidlaganidek, ta'lim jarayoni faqat maktab devorlari bilan cheklanib qolmasdan, oilaviy institutlar bilan uzviy integratsiyalashgandagina interpretativ xarakter va yuqori samaradorlikka ega bo'ladi. J. Epstein tomonidan ilgari surilgan "maktab-oila-jamiyat" (School-Family-Community Partnerships) modeli ham aynan shu paradigmani qo'llab-quvvatlab, ta'lim ekotizimidagi barcha subyektlar integratsiyasining funksional ahamiyatini ilmiy asoslaydi.

Raqamli transformatsiya sharoitida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ushbu hamkorlik arxitektonikasini optimallashtiruvchi katalizator omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Zamonaviy raqamli platformalar va onlayn ekotizimlar orqali ota-onalar bilan uzluksiz, sinxron va asinxron aloqani yo'lga qo'yish, o'quvchilarning akademik o'zlashtirish traektoriyasini monitoring qilish hamda yuzaga kelayotgan preventiv muammolarni tezkor hal etish imkoniyati kengaymoqda. Bu esa, o'z navbatida, umumiy o'rta ta'lim jarayonining institutsional shaffofligi va sotsial samaradorligini ta'minlaydi.

Tadqiqot natijalari va nazariy qarashlar tahlili shuni ko'rsatadiki, o'qituvchining mas'uliyat bilan yondashuvi, ota-onalarning faol ishtiroki va ijtimoiy muhitning qo'llab-quvvatlashi uyg'unlashgan holda o'quvchining sifatli ta'lim olishi va barkamol shaxs sifatida shakllanishiga mustahkam zamin yaratadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot natijalari o'qituvchi va ota-onalar o'rtasidagi ijtimoiy hamkorlikni samarali tashkil etish ta'lim jarayoni sifatini oshirishning determinativ omili ekanligini tasdiqladi. Eksperiment davomida qo'llanilgan nazariy-empirik metodlar hamda Chilonzor tumanidagi 178-sonli maktabda o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari o'quvchilarning akademik o'zlashtirish darajasi, intizomi va ijtimoiy faolligida barqaror ijobiy dinamikani ko'rsatdi.

Maktab va oila o'rtasidagi raqamli kommunikatsiyani modernizatsiya qilish, ota-onalarning pedagogik-psixologik savodxonligini oshirish hamda "maktab-oila-mahalla" klasterining uzviy integratsiyasi ta'lim oluvchilarning sotsiomadaniy adaptatsiyasida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bu yondashuv xalqaro fundamental nazariyalar (L. Vygotskiy, J. Dewey, J. Epstein) bilan to'liq hamohang bo'lib, ta'lim muhitida shaffoflik va sotsial samaradorlikni ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, o'qituvchi va ota-onalar o'rtasida o'zaro ishonchga asoslangan professional sheriklik muhitini tizimli yo'lga qo'yish, zamonaviy axborot platformalaridan unumli foydalanish hamda ota-onalarni pedagogik jarayonga keng jalb etish innovatsion ta'lim muhitini yaratish va barkamol avlodni shakllantirishning mustahkam poydevori hisoblanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 1-fevraldagi "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi O'RQ-901-son Qonuni: <https://lex.uz/docs/-6786401>
2. Epstein J.L. School, Family, and Community Partnerships: Preparing Educators and Improving Schools. – Routledge, 2018.
3. Islomova F., Fayozova F. Family Traditions in Vocational Guidance, a Guarantee of Preparing Young People for Independent Living. // ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – Vol. 11, No. 10. – P. 34–38.
4. Dewey J. Experience and Education. – New York: Macmillan, 1938.
5. Raxmonqulova M. Maktab va oila hamkorligi: nazariya va amaliyot. – Jizzax: JDPU nashriyoti, 2020.
6. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.
7. Yuldashov J. Ta'limda ijtimoiy hamkorlik mexanizmlari. – Toshkent: O'zbekiston, 2022.
8. Вохидова Н.Х., Халикова З.М. Формирование толерантности у учеников начальных классов // Журнал научных публикаций аспирантов и докторантов. – 2016. – № 6. – С. 70–71.
9. Чориевич Т.Е. Укувчиларнинг ижтимоий интеллекти: ота-оналар билан самарали ҳамкорликнинг педагогик асослари.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №5(5)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.